



## ISLOM MOLIYASI

*Nig'matova Aziza Ahror qizi*

*Fan va texnologiyalar universiteti Kunduzgi, MMT 1/24*

**Annotatsiya:** *Islom moliyasining O'zbekistondagi ahamiyati qanday? Foiz bo'lmasa, foyda qayerdan keladi? Undan kimlar foydalana oladi? Islom iqtisodiyoti vositalaridan faqat musulmon bo'lganlar foydalanishi mumkinmi?*

**Kalit so'zlar:** *AlHuda, islom iqtisodiyoti, islom moliyasi, islom moliyasi productlari,*

## ISLAMIC FINANCE

*Nigmatova Aziza Ahror qizi*

*University of Science and Technology full-time, MMT 1/24*

**Annotation:** *what is the importance of Islamic finance in Uzbekistan? Where does the profit come from if there is no interest? Who can use it? Can the tools of Islamic Economics be used only by those who are Muslims?*

**Keywords:** *AlHuda, Islamic economics, Islamic finance, Islamic finance products,*

### Kirish:

So'nggi yillarda islomiy moliya moliyaviy texnologiya sohalari bilan bir qatorda, hamda xalqaro moliyaviy xizmatlar sanoatida eng jonli va shu bilan birgalikda hali ko'zga yaqqol tashlanib ulgurmagan tarmoqlardan biri bo'lib qolmoqda.



Islom moliyasini asosiy manbaasi bu Qur'on va Hadis.Misol uchun Qur'onning qaysidir oyatlarida oldi-sotdiga, islom moliyasiga oid oyatlar bor va shunga qaraladi.Agar ba'zi narsalar Qur'onda bo'lmasa hadisdan qaraladi.Bunda ham bo'lmasa,ikkilamchi manbaalarga o'tiladi,bular Qiyos va Ijmo.Islom moliyasi va bankining umumiyligi amaliyotlari islom dining o'rnatilishi bilan paydo bo'lgan.Biroq, institutsional islom moliyasi XX asrdan keyin tashkil etilgan.

### Natijalar:

Hozirgi vaqtida Islom moliyasi eng yaxshi yo'lga qo'yilgan 3 ta davlat

- Saudiya Arabistoni
- Eron
- Malaziya

Ko'rsatgichlar ko'lami bo'yicha global bozor hajmining 66 foiziga egalik qiladi.

Qardus nashrining ma'lumot berishicha, ayni paytda islom moliya sektori yiliga 15% dan 25%gacha o'sib bormoqda, islom moliya institatlari esa dunyo bo'ylab 2,7 trillion dollardan ziyod aktivlarni boshqarmoqda.

O'zbekistonda «**Islom bank ishi va moliyasi**» tashkiloti (AlHuda) fikricha Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida islom moliya sanoatining o'sishi boshqa davlatlarga qaraganda sekinroq, ammo bu mintaqada imkoniyatlarning ortib borayotgani tufayli jahon xalqaro bank sanoatining e'tiborini tortmoqda. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston MDHda islom banki va moliyasining bu kengayishida yetakchilik qiluvchi asosiy o'yinchilar bo'lishi mumkin, deyiladi bayonotda.Bugungi kunda O'zbekistonda Islom moliyasiga qiziqish tobora ortib bormoqda.O'zbekiston aholi soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 36 799 800 kishini tashkil etadi, taqriban 37 mln.Aholining ko'pchiligi, taxminan 95% aholisi Islom diniga e'tiqod qiladi.Bu yer nafaqat gaz,



neft va boshqa tabiiy resurslarga boy, balki azaldan ham ilm va islom dinining markazlaridan biri bo'lib kelgan.

### **Muhokama:**

#### **Islom moliyasi tizimi nima?**

Bu pul mablag'laridan foydalanish va taqsimlash jarayonida Islom huquqi qoidalariga mos keluvchi iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladigan Islom ekotizimining bir qismidir. Masalan, Islom dinida qarz berish yoki olish evaziga foyda ko'rish taqiqlangan, barcha moliyaviy jarayonlar esa haqiqiy iqtisodiy faoliyatga asoslangan bo'lishi kerak. Odamga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan sohalarni moliyalashtirishga ruxsat berilmaydi — masalan; qimor o'yinlari, alkogol, tamaki mahsulotlari va boshqalar.

#### **Islom iqtisodiyoti vositalaridan faqatgina musulmonlar foydalanishi mumkinmi?**

Yo'q. Hozirda iqtisodiy o'sishning yangi yo'nalishlarini izlab, ham musulmon, ham musulmon bo'lмаган ko'plab davlatlar iqtisodiy diversifikatsiya uchun Islom iqtisodiyotiga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Masalan, barcha sektorlarda innovatsion mahsulot va xizmatlar yaratuvchi dunyoning yetakchi brendlari ham Islom iqtisodiyotiga qiziqish bildirmoqda.

#### **Islom banklari qayerdan foyda oladi?**

An'anaviy iqtisodda pul bu-oldi berdi vositasi, pul bu-qiyomat jamg'arish vositasi va pul bu-maxsulot o'rnida ko'rildi. Masalan sizga yuz ming so'm berib bir yuz yigirma mingga qaytaras qilib sotishi mumkin. Bu pulga maxsulot sifatida qaralgandek. Lekin islom moliyasida, islom iqtisodida pulga faqat oldi-sotdi vositasi sifatida va hamda pul jamg'arish qiyatiga ega bo'lgan vosita sifatida ko'rildi. Biroq, maxsuloq sifatida ko'rilmaydi. Ya'ni puli bor odam faqatgina puli



bo'gani uchun boylik, uni ko'paytirish degan narsa yo'q.Islom moliyasida pul aktivlarga bog'liq bo'ladi.Misol uchun siz islam bankiga borib menga pul beringlar,kredit beringlar desangiz sizga pul berilmaydi.Ular faqatgina iqtisodiy faoliyatga pul berishlari mumkin.Misol uchun siz biror bir uskuna olmoqchi bo'lsangiz islam banklari bu uskunani olib sizga sotishi mumkin.Yoki sizning bir biznes rejangiz bor siz o'zingizga sherik qidiryapsiz, islam banki o'sha loyihangizga sherikchilik qilishi mumkin.Bu degani o'sha loyihangz foyda ko'rsa foydangizga,zarar ko'rsa zararingizga sherik bo'ladi degani.Islom moliyasining bir nechta productlari bor.

Birinchisi (musharika)-sherikchilikda ish qilinadigan product.Oldin aytganimizdek bunda ikkala taraf pul tikadi, foydasiga ham zarariga ham sherik bo'ladi.

Ikkinchisi (mudaraba)-bunda bir taraf pul tikadi ikkinchi taraf esa loyihani yurgazadi.Foyda kelishilgan ulushda taqsimlanadi.

Uchinchisi (murabaha)-sizga biror bir uskunani sotib olish uchun pul kerak.Lekin islam moliyasi sizga naqd pul bermaydi, balki u bu uskunani sotib oladi va ustiga o'sha foizini qo'yib(marja) sotishi mumkin.

To'rtinchisi (istisna)-bu qurilish sohalarida ishlataladi.Ya'ni siz bir uyning loyihasini ularga berishingiz mumkin, necha kv metrli, necha qavaqtli, dizayni va hokazolar...ular bu uyni siz uchun bitirib sizga qaytarib sotishadi.

Huddi shunga o'xshash sanam bor.Bu dexqonchilikda bo'ladi.Unga kora sarmoyasi yo'q dexqon yil boshida yerga kerakli bo'lgan o'g'itlar bormi, don yana boshqa narsalar islam bankidan yoki sarmoya kiritmoqchi bo'lgan tarafidan shu moliyalashtirishni salami orqali oladi.Yilni oxiriga kelb esa uni sotib oladi.

Bu bir nechta product orqali islam banki foyda ko'radi.



**Xulosa:**

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, bugungi kunda islom moliyasi umuman olganda islom banklari kundan kunga rivojlanib bormoqda. Albatta bu yaxshi ko'rsatkich. Bundan nafaqat musulmonlar, balki, musulmon bo'limgan boshqa shaxslar ham foydalanishi mumkin. IMI (Islam Moliya Institutlari)lar orqali siz biror bir loyihangizga mablag'ingiz bo'lmasa moliyaviy jihatdan ko'mak olishingiz mumkin. Islom moliyasida siz bilan sherikchilik asosida biror bir loyihaga kirishilsa tomonlarning roziligi asosida foya taqsimlanadi. U loyiha rivojlanib boraversa ma'lum bir ulushni doimiy ravishda IMI larga berilib turiladi. An'anaviy banklarda esa unday emas. Ular sizga pul beradi, lekin siz foydaga kirasizmi yoki zarar ularga buning ahamiyati yo'q. Belgilangan summani belgilangan vaqtda to'lashingiz shart. Yaxshi tarafi shundaki, ularga pulni to'lab bo'lsangiz ular sizni bezovta qilmaydi, lekin IMI larda esa ular har doim sizga sherik bo'lib qolaveradi. Va foydaning ma'lum bir ulushi ularga tegishli bo'ladi.

**Foydalanimgan adabiyotlar:**

1. [gazeta.uz](http://gazeta.uz)
2. [Qardus](http://Qardus.uz)
3. <https://youtu.be/BMKaWQKSg9M>